

KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2023, № 8-son



KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal
2023-yil, 8-son

Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,

A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV

J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,

A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,

K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani

Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:

I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 15.12.2023-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,

Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Sharipova B.S. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari bioetik madaniyatida axloqiy me'yor va uni baholash tamoyillari.....	3
Egamberdiyeva M.G. Multimedia vositalari asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	6
Fozilov O. O'zbek va ingliz tillarida perefrazalarni o'rganish metodikasi. 10	
Ibragimova Sh.O. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga nisbatan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishda pedagog va ota-ona hamkorligini tashkil etishning metodik imkoniyatlari.....	13
Yo'ldosheva M.S. O'quvchi-yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish.....	22
Karimova N.R, Abdukadirov I.A. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.....	26
Muslimov Sh.N. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllanishi.....	30
Pulatova M.K. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida o'quvchilarni o'quvstrategiyalariga (learningstrategies) o'rgatishko'nikmalarinirivojlantirish.....	33
Mahkamova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari va amaliy mexanizmlari.....	37
Norinov M. Ta'lim samaradorligini oshirishda va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda multimediya vositalarining imkoniyatlari.....	43
Raximov X.A., Rasulova M.S. Raqamli ta'lim muhitida matematika fanini o'qitishda talabalar mustaqil ishini roli.....	47
No'monxonova M.N. Bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalarinirivojlantirishda axborot texnologiyalarining samaradorligi.....	52
Alimqulova R.G. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga nutq madaniyatini rivojlantirishdagi muammo va yechimlar.....	56
Xusenova S.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch ma'naviy kompetensiyasi komponentlari.....	62
Sirojiddinova N.Q. Innovatsion ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim tayyorlov guruhi bolalarida atrof muhitga munosabatni shakllantirish.....	66
Xaitova N.F. Boshlang'ich ta'limda geymifikasiyadan foydalanish orqali o'quvchilar motivatsiyasini rivojlantirish jarayoni.....	72
Ikromov X.X. Talabalarni ma'lumotlar bazasini boshqarishga asoslangan innovatsion axborot tizimlarini yaratishga tayyorlashning nazariy jihatlarini.....	76
Abdullaeva H.A. Гендерные подходы к образовательной среде в совершенствовании познавательно-профессиональных компетенций будущих учителей начального образования.....	80
Усманова K.X. Таълимни рақамлаштириш шароитида инглиз тили ўқитишда медиатеكنولوجياларни қўллаш бўйича тадқиқотларнинг илмий-назарий таҳлили.....	84
Azamxonov B.S. Bakalavriat talabalarining mixed reality texnologiyasi asosida takomillashtirilgan axborot kompetentligi va akademik ko'rsatkichlarining tahlili: empirik tadqiqotlar.....	88
Isakulova N.J. "Pedagogika" fani kategoriyalarining o'ziga xos xususiyatlari.....	93
Rasulov U.M. Test sinov tizimining maqsad va vazifalari.....	99
Usmonov S.A., Melibayeva F.M. Axborot texnologiyalari orqali tibbiyotda biofizikani o'qitish samaradorligini oshirish.....	106
Mardov S.X. Dizayn fikrlash va uning nazariy jihatlarini hamda grafik ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyati.....	110
Norqulova D.U. Tasviri san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyada pedagogik-psixologik jihatlarining rivojlanishi.....	117
Atakov I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "tarbiya" fani o'qitishda interfaol usullardan foydalanish.....	125
Qurbonov P.S. Informatika fanini masofadan o'qitishning interfaol metodlari va uni amaliyotda qo'llash.....	133
Botirova X.T. Ijro ko'nikmalarini o'zlashtirish va asarlar tahlili.....	141
Madaminov J.Z. Muhandislik kompyuter grafikasi" fanining ixtisoslik fanlari bilan integratsiyasini amalga oshirish masalalari.....	146
Shernazarov I.E. O'quvchilarda funksional savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish.....	152

Meliqo'ziyev D.J. Pisa xalqaro baholash dasturida fizika fanini o'qitish jarayonidagi topshiriqlarni baholashga yondashuvlar.....	158
Maxmudova D.M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha topshiriqlarni ishlash ko'nikmasini shakllantirish.....	163
Ibragimov X.X. Tasviriy san'atning rangtasvir fanida nazariya va plener amaliyoti.....	169
Бузурханов Б.З. Харбий олий таълим муассасалари курсантарининг касбий мотивациясини ривожлантиришнинг методологик асослари.....	176
Наркабилова Г.П. Значение общих закономерностей в формировании цифровой культуры будущих учителей в условиях смешанного обучения.....	179
Латипов Б.Б. Проблемы с восприятием на слух у изучающих второй язык.....	187
Рузиева Н.З. Права людей с ограниченными возможностями в инклюзивном образовании.....	191
Султанхужева Г.С. Методика преподавания русского языка в национальных группах в узбекистане.....	200
Qilichova M.X. Sharof Rashidov asarlaridan yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda foydalanishning ilmiy pedagogik muammolari.....	204
Baltayev X.A. Qo'shinlarning jangavor imkoniyatlarini takomillashtirishida pedagogik jihatlarnig ahamiyati.....	209

TASVIRIY SAN'ATNING RANGTASVIR FANIDA NAZARIYA VA PLENER AMALIYOTI

IBRAGIMOV XURSHID XASANOVICH

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqola tasviriy san’atning rangtasvir fanida nazariy va amaliy kasbiy talablarni puxta o’zlashtirmasdan turib, tabiat va insonning tashqi qiyofasini, o’ziga xosligini, ma’naviy manfaatlarini, ijtimoiy mavqeini, shuningdek, davrning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatish, uning ijodiy uslubini ochib berish mumkin emasligi shuningdek realistik tasviriy san’at asarining mohiyati shundan iboratki tasviriy san’atning janrlarida to’plangan realistik tajriba boy va ahamiyatli bo’lib, haqiqatda tasvirlangan tabiat ob’ektlarini idrok etishdan kelib chiqadigan assotsiativ tuyg’ular, g’oyalar va fikrlar natijasida tomoshabinga ta’sir qiladi. Ob’ektlarning ishonchli tasviri, ularning go’zalligi va o’ziga xos tasviriy fazilatlarini uzatish ushbu janrda to’laqonli badiiy obraz yaratishning asosiy shartidir. Bizga yaqin bo’lgan narsalarning haqiqat bilan tasvirlangan moddiy dunyosi ularning ob’ektiv o’ziga xosligini va govzalligini ochib beradi.

Kalit so’zlar: Plener, natyurmort, kompozitsiya, assotsiativ, kolorit, gamma, obraz, kolorit, faktura, fazo, xolst, elektroensefalografiya, perspektiva, spektr, etyud.

San’atning turlari juda ko’p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san’at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog’oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi. San’atkor real borliqni o’z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko’chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san’at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo’lmay qoladi. San’atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo’lgan voqea va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o’zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo’layotgan voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o’z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o’ziga o’xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o’zining fikr va tuyg’ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan olijanob, mard kishilar obrazini ko’rib, undan g’ururlanadi (chunki

rassom ham g’ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o’rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvirlangan bo’lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o’zida shunday xususiyatlar bo’lmisligi uchun harakat qiladi. Bundan ko’rinib turibdiki, tasviriy san’at asarlari san’atning boshqa turlari - adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o’rganish va sirlarini ochishga bo’lgan ehtiyojlarni qodirishga faol ta’sir ko’rsatadi. Tasviriy san’at asarlari ko’rish uchun mo’ljallangan san’atdir. Uni ko’rish orqaligina zavq olish mumkin. Kuy va qo’shiqning go’zalligini so’z bilan ta’riflab bo’lmaganidek, rassomning asarlarini ham so’z bilan to’liq ta’riflash mumkin emas. Tasviriy san’at asarlarini to’g’ri tushunishga oid ba’zi misollarga murojaat qilaylik. A.Plastovning “Peshin” deb nomlangan asarining sujeti juda sodda, hatto bir qarashda san’atga loyiq mavzu yo’qqa ham o’xshaydi. Shu asarni so’z bilan ta’riflansa, eshitgan odam, xo’sh, nima bo’libdi, deyishi va unga beparvo bo’lishi ham mumkin. Lekin asarga qaragan tomoshabin hech qachon shunday

demaydi. Ko'rinishdan sodda bo'lib tuyulgan bu asar uni o'ylashga majbur qiladi, tevarakatrofning naqadar go'zal ekanligini his qilishga, shu go'zallikdan hayajonlanishga da'vat etadi. Haqiqatan ham beg'ubor, kuchga to'lgan sokin tabiat, zilol suv, kishi qalbiga orom beruvchi quyoshning mayin nurida qanchadan-qancha go'zallik, latofat bor. Rassom shulardan quvonadi, shu quvonchini boshqalar bilan o'rtoqlashishga intiladi. Bunga erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari kompozitsiya, kolorit, yorug', soya, chiziq, faktura imkoniyatlaridan foydalanadi. Rassom shunday kompozitsiya tanlaganki, bu voqeaning qachon va qayerda sodir bo'layotganini ochib, rasm ishlangan yuza (xolst) - ning bir butun bo'lib ko'rinishini ta'minlagan. Shu rasmdan kompozitsiyadan biron-bir detalni, aytaylik, mototsiklni olib tashlaylik yoki obrazlarning birortasining o'rnini o'zgartirib ko'raylik-chi, u holda tasvirningta'sirkuchiyo'qoladi. Kompozitsiya yaxlitligi buziladi. Rassom yorug' va soya imkoniyatlaridan foydalanib, voqea sodir bo'layotgan vaqtni kovrsatishga erishgan. Suv ichayotganlarning tagiga tushayotgan soya voqeaning peshinda, quyoshning tikkaga kelgan paytida sodir bo'layotganligidan dalolat beradi. Asar uchun tanlangan rang gammasi - kolorit yozning issiq jazirasini his etishga xizmat qilgan. Quyosh nuriga to'yingan sarg'ish-yashil ko'katlar hamda qizil mototsikl, quyosh nurida toblanib, qizargan odamlar gavdasining ranglari birgalikda butun asarning rang gammasini tashkil etadi. Shuning uchun ham asarga qaraganimizda shu issiq rang gamma hisobiga biz yozning jazirama issig'ini his qilgandek bo'lamiz. Kompozitsiya markazidagi buloq suvining salqini shu jaziramani yorib atrofga salqin havo taratayotgandek va hayotning o'ziga xos kurashini tomoshabinga ko'z-ko'z qilayotgandek tuyuladi. Rassom asar yaratganda chiziqlarning emotsional

imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Ma'lumki, har xil chiziq kishida har xil taassurot qoldiradi. Silliq chiziqlar ko'p hollarda sokinlik, xotirjamlik baxsh etsa, aksincha pala-partish, har lomonga yo'nalgan ehiziqlar notinchlik, hayajon tug'diradi. Tasviriy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmalari qanday yechilganligini, ularning tevarakatrofga bo'lgan munosabatini to'g'ri ko'rsatib bera olish ham muhim o'rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo'layotgan voqeaning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi - koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g'adir-budurlikligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob topishga harakat qilish zarur. Slumdagina tasviriy san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to'g'ri tahlil qila olishni o'rganish mumkin¹.

Rangtasvir – rangshunoslik fani sifatida asosiy o'rinni egallaydi. Bu fanni o'rganishdan maqsad kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisining rangtasvir fanining nazariyasi va amaliy ko'nikmalarini chuqur egallash, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Rassom-o'qituvchi rangtasvir fani bo'yicha olgan bilim va malakalariga asoslangan holda o'zining kuzatishlari, badiiy tasvir yaratish oldidan qilinadigan izlanishlarida, ayniqsa eskizlar, ular asosida katta ko'lamdagi san'at asarlarini yaratishda rangtasvirning o'rnini beqiyosdir. Rangtasvir darslari talabalarga nazariy va amaliy mashulotlar orqali olib boriladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, amaliy mashulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-o'qituvchilarga ularning

¹ <https://fayllar.org/mavzu-tasviriy-sanat-turi-va-janri.html>

keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhimdir. Rangtasvir haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, hajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bolik holda har bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib, konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyunlashuvi bu haqiqiy rangtasviridir. Tasvirda qalamchizi mukammal bo'lishi lozim, aks holda, turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bolik holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada jozibali ko'rsatadi. Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi; “Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir” Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo mohir rassom qalamdan foydalanmasdan, ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirning qalamtasvir bilan bevosita bolikliгинi his etadi. Ya'ni buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'ri qo'yilishi, ishning bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bolik. Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina, (qoozga to'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri

topish, metodik ketma-ketlikda ishni tushlash va h.k.) rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda, noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida, “Rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak?” — degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: “Rasm chizish!”, “Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz?” degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: “Rasm chizish va yana rasm chizish!” — deb javob bergan. U rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan. Buyuk haykaltarosh Mikelandjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) “har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan”.

Ma'lumki, inson tashqaridagi ma'lumotlarning 90 foizini ko'rish organi orqali qabul qiladi. Ko'z esa inson xatti-harakatini amalga oshirishda 70-90 foizini tashkil etadi. Demak inson faoliyatida rangning ahamiyati juda muhimdir. Shuning uchun ham atrof-muhitni ongli ravishda rang tanlanishi, ilmiy asoslangan hamda estetik nuqtayi nazardan yondoshilgan bo'lishini taqozo qiladi. Ranglarning ta'sirini tadqiqot sifatida birinchi o'rganuvchilardan I. Gyote bo'lgan, chunki bitta ko'rinishdagi manzarani yashil, sariq, qizil va boshqa rangli shishalar orqali kuzatishni yaxshi ko'rgan va uni inson qanday idrok etishi va his qilishi holatining o'zgarishlarini o'rgangan. Buyuk nemis olimi Iogann Volfgang Gyote (1749–1832) “Rang haqida ta'limot”ida rangning odam organizmiga ta'siri oqibatida sodir bo'ladigan

ruhiy (emotsional) o'zgarishlar, har bir rangning o'ziga xos ruhiy holat qo'zgovchi kuchga egaligi asarda alohida o'ringa ega. I.Gyote – “rang yorulik mahsuli, emotsiya qo'zovchi mahsul, nur-rang – emotsiya bir zanjirning bo'laklari”, – degan edi. Gyote ranglar haqidagi ta'limotini aniq tizim tarzida izohlab berdi. Ammo Gyote ta'limoti Nyutonning fizikaviy qonuniyatlarga asoslanib, ko'plab tajriba va izlanishlar orqali yaratgan kashfiyotiga nisbatan ancha sodda, ilmiy jihatdan asoslanmagan tarzda edi. Shunga qaramasdan, Gyotening rang haqidagi oyalari rassomlar uchun ma'lum miqdorda tayanch ta'limotlardan biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

“Rangtasvir - tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorulik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin”, – deb aytgan edi K.F.Yuon. Manzara etudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och-to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli-tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'pyillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati – rang-tusi, 43 rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi. Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglari ongimizga singib boradi (paxta – oq, o'tlar – yashil, osmon – havorang, dengiz – ko'k va boshqalar). Bu ranglar buyum

va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo buyum va narsalardagi asosiy rang turli yorulik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta'sirida buyumning rangi turlicha ko'rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko'kimtiryashil tusga kiradi, yashil muhitda – pushtisimon, sariqda esa – ko'kimtir bo'ladi. Qizil qog'ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog'oz ustiga qo'yilsa, kulrang qog'oz yengil yashilsimon rangda bo'lib ko'rinadi. Agar qizil doiraning o'rniga yashilni qo'ysa, kulrang qog'ozda qizig'ish tus hosil bo'ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tusalari (qo'shimcha) hosil bo'ladi. Shu sababli ham tabiatda «xira» neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdagi soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to'yingan. Yonma-yon bo'lgan qo'shimcha ranglar o'zining yorqinligini kuchaytiradi (qo'shimcha va qarama-qarshi ranglar – bu qizil va yashilsimon — havorang, zaraldoq va havorang, sariq va ko'k, sarig'ish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o'zgaradi (havo perspektivasi). Yuqorida sanab o'tilgan ta'sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo'yicha ham, yoruligi va to'yinganligi bo'yicha yoki uchala xususiyatlar bo'yicha bir vaqtda o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgargan rang endi buyumning asosiy rangi emas, balki u shartlidir. Ko'zning moslashuvi deb ataluvchi (yorug'likka ko'z sezuvchanligining oshishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib, to'qroq bo'lib ko'rinadi. Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish

mumkin emas. Rangtasvir ishlash jarayonida manzara obyektlari va narsalarni yaxlit ko‘rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko‘rinishni yorqin ranglarda, keyingi ko‘rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko‘rish orqali manzaraning perspektiv o‘lchamlarini, ularning turli ko‘rinishdagi rang munosabatlarini to‘g‘ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin. Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar mutanosibligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo‘yoqlar, kechqurin esa sariq zaraldoq, bulutli kunda esa – neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O‘rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-havorang va yashil ranglar kuzatiladi. Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarining mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak. Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta‘sir kuchi shunda namoyon bo‘ladiki, qachonki, kartinadagi narsalar, obyekt yoki

voqea ma‘lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa. “Kim men uchun haqiqiy kolorist hisoblanadi?” – deb D.Didro o‘zi javob beradi: “Tabiat ranglarini to‘g‘ri yoritilganligini tasvirlay olib kartinada uyg‘unlikka erisha olgan rassomgina”. Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko‘pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki e‘tiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko‘pincha umuman noto‘g‘ri “munosabatlar” tushunchasi deyilganda rang turlarining nomutanosibligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarining farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi².

Peyzaj rasmida rassom tabiatga bevosita murojaat qiladi va chiziqli va havo nuqtai nazari tamoyillari asosida makonni uzatadi, haqiqiy muhit va yorug‘likning haqiqiy holatini yaratadi. Peyzajni tasvirlab, rassom tomoshabinga hissiy ta‘siri tufayli rassomning o‘zi boshdan kechirgan fikrlar va his-tuyg‘ularni assotsiativ ravishda uyg‘otishi mumkin bo‘lgan tabiatning rang-barang holatini etkazishga intiladi.

Tasviriy san‘at namunalari suratlardan nimasi bilan ustun



² Kadirova Nozima Arifovna, Jonli odam qomatidan anatomik rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. Buxoro 2022.

Erazm Rotterdam Universiteti olimlari odamlar san'at asariga yaqinlashganda ularning bosh miyasida o'ziga xos reaksiya sodir bo'lishini aniqlashdi. Ushbu tadqiqot tafsilotlari Brain and Cognition jurnalida havola etilgan. Olimlar 24 nafar talabadan iborat guruhdan bir qator tasviriy san'at namunalari baholashni so'rashdi va bir vaqtning o'zida EEG (elektroensefalografiya) yordamida ularning miya faolligini o'lchashdi. Birinchi bosqichda sinovdagilar bir qator tasvirlarni hissiy jihatdan baholashdi. Shuningdek ular tasvirning san'at asari yoki oddiy rasm ekanligini aniqlashlari kerak bo'lgan. Elektroensefalografiya - bosh miya faoliyatini tekshirish usuli; bosh miyaning bioelektrik faolligini elektroensefalograf vositasida yozib olish. Bosh miyada sodir bo'ladigan bioelektrik faol harakatlarni yozib olish mumkinligi va uni klinik ahamiyatini ilk marta nemis psixiatri Gans Berger aniklagan (1929).

Elektroensefalografiyadan tadqiqot va diagnostika maqsadlarida foydalaniladi. Miya ham o'z faoliyatida, xuddi boshqa a'zo va to'qimalar singari, juda kichik elektr yurituvchi kuch hosil qilib turadi. Uni elektroensefalografda qayd etish mumkin. Buning uchun tekshirilayotgan odam boshiga plastinkasimon elektrodlar qo'yilib, ular apparatga ulanadi, apparat miyaning biopotensiallarini yozib boradi. Ikkinchi bosqichda tadqiqotchilar ishtirokchilarning miya qobig'idagi elektromagnit faollikni o'lchashgan. Bu bosqichda talabalarga qanday xarakterdagi tasvirni ko'rishlari aytili: hayotiy suratlar, hujjatli yoki o'yin filmlaridan lavhalar yoxud kartinalar. Elektromagnit faollik darajasi tasvir namoyishidan 0,6-0,9 soniya o'tgach o'lchangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilar hujjatli film lavhalarini ko'rishganida, ularning miyalaridagi elektromagnit faollik darajasi oshgan, san'at asarlari ko'rsatilganida esa

- bu ko'rsatkich pasaygan. Bundan tashqari tadqiqot ishtirokchilari kartinalarning jozibasi ko'proq, deb topishgan. Olimlarning ta'kidlashicha, kontekst miyaning qabul qilish jarayoniga katta ta'sir o'tkazadi. Tadqiqotchilarning so'zlariga ko'ra, insonlar "haqiqatdan yiroq bo'lgan" narsalarga duch kelganda, ularning hissiy reaksiyasi neyron darajasida xiralashadi. Mutaxassislar buni tasvirning shakli, rangi va kompozitsiyasini tahlil qilish uchun uning mazmunidan uzoqlashishga urinish bilan bog'lashadi. Olimlar hissiyotlarni "mexanik boshqarish" jarayonini endi anglay boshlayotganliklarini aytib, shu mazmundagi tadqiqotlarni ko'proq o'tkazishlari kerakligini ta'kidlashgan³.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bo'liq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli obhavoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zaraldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham, tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorulik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlanich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar xuddi shunga baishlangan bo'lishi kerak. Manzara rangtasviri bo'yicha birinchi mashulotlar manzaraning asosiy obyektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etudlar bo'lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy doi, yer yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang doi va hokazolar). «Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlarini birdaniga

³ <https://kun.uz/uz/news/2016/09/20/tasvirij-sanat-namunalari-suratlardan-nimasi-bilan-ustun>



G'Abdurahmanov. Xumsonda kuz fasli

inobatga olib tasvirlash kerak», – deb yozgan K.A.Korovin.

Xulosa qilib aytganda malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko'ra bilishi va mohirona tasvir lay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko'rinishini tomosha qilishga muyassar bo'ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo'lib hisoblanadi. Tajribali rassomlar yorug'lik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvir laydilar. Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko'zdan kechirsak, hammasida ko'kimtir - yashil tuslar yig'indisini ko'ramiz; quyosh botishi yoki oqshom

vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg'ish - olov rang yoki qizg'ish koloritni ko'rish mumkin. V.Serov, I.Repin, M.Nabiev, O'.Tansiqboev, R.Ahmedov, A.Mo'minov, I.Haydarov, P. Benkovlarning ko'plab asarlarida sun'iy elektr yorug'ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz. Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun qoida ishlab chiqilgan bo'lib, talaba o'zining o'quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart. Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

Foydalanilgan adabiyotlar:

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. Abdirasilov S., Tolipov N., Rangtasvir T, 2005.
2. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N, Rangtasvir T, 2006.
3. Abdurasulov S.F. "Tasviriy san'at atamallari" T: 2003.
4. Qobilov Sh.R. Tasviriy san'at va muhandilik grafikasi o'qitish nazariyasi va metodikasi (Pedagogik tasvirlar ishlash) Toshkent "Fan va texnologiyalar" 2014.
5. Abdirasilov S.F., Azimov B.B. Rangtasvir . Toshkent "Musika" 2011.
6. Azimova M. Rangtasvir, Buxoro – 2022.
7. A.Shirinov. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish. Buxoro-2022.
8. N.A.Kadirova. Jonli odam qomatidan anatomik rangtasvir. O'quv qo'llanma-Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.
9. Muratov, H. (2021). The importance of organization and management independent education in the learning process. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.
10. Muratov, X. X. Qalamtasvir, o'quv qo'llanma. Toshkent: ijod-print nashriyoti.
11. Nazirbekova, Shaxnoza Batirovna (2022). RANGTASVIR ASARLARIDA QALAMTASVIRNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 635-644.
- Internet saytlar
12. <https://fayllar.org/mavzu-tasviriy-sanat-turi-va-janri.html>
13. <https://kun.uz/uz/news/2016/09/20/tasviriy-sanat-namunalari-suratlardan-nimasi-bilan-ustun>
14. <https://scholar.google.com/citations?hl=en-US&user=jn58nqEAAAAJ>
15. <https://scholar.google.com/citations?user=gBbIVO4AAAAJ&hl=en>